



## AHOLINING REAL IMKONIYATLARINI YARATGAN HOLDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Saparov Murod Irgashovich,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi. [saparovmurod11@gmail.com](mailto:saparovmurod11@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0002-5767-2636>

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1611>

### MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

**Qabul qilindi:** 15-aprel 2026-yil

**Tasdiqlandi:** 17-aprel 2026-yil

**Jurnal soni:** 18-A

**Maqola raqami:** 51

### KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

kambag'allik, xizmat ko'rsatish, kambag'allikni qisqartirish, malakali mutaxassislar, "mahalla yettligi", "inson", axborotlarni shakllantirish, qarorlar qabul qilish.

### ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tegishli axborotlarni shakllantirish va natijasini baholab, munosib boshqaruv qarorlarini qabul masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Buning uchun barcha yo'nalishlarda malakali mutaxassislarining bo'lishi hamda ushbu mutaxassislar munosib rag'batlantirilishi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Mazkur tadqiqotda kambag'allikni qisqartirish jarayonida aholi real imkoniyatlarini aniqlash, ularni samarali bandlikka jalb etish hamda ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tizimli tahlil qilingan. Shuningdek, kambag'allik darajasini baholashda ko'p o'lehovli yondashuvni joriy etish, mahalla darajasida manzilli ish yuritish hamda "inson omili"ga asoslangan boshqaruv tizimini rivojlantirish zarurati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari kambag'allikni qisqartirishda innovatsion yondashuvlar, raqamli ma'lumotlar bazasi va malakali kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish muhimligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, aholi daromadlarini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allik darajasini barqaror kamaytirish imkoniyatlari yoritilgan.

### ABOUT THE PAPER

**Accepted:** 15 april 2026

**Approved:** 17 april 2026

**Volume:** 18-A

**Paper number:** 51

### KEYWORDS

poverty, service provision, poverty reduction, skilled professionals, "seventh district", "person", information generation, decision making

### ANNOTATION

This article focuses on the formation of relevant information on poverty reduction and its assessment, and the adoption of appropriate management decisions. For this, proposals and recommendations are given on the availability of qualified specialists in all areas and the appropriate encouragement of these specialists. This study systematically analyzes the issues of identifying the real opportunities of the population in the process of poverty reduction, involving them in effective employment, and improving socio-economic support mechanisms. It also substantiates the need to introduce a multidimensional approach to assessing the level of poverty, conduct targeted work at the mahalla level, and develop a management system based on the "human factor". The results of the study indicate the importance of innovative approaches, digital databases, and the effective use of qualified personnel in poverty reduction. In addition, it highlights the possibilities of sustainably reducing poverty by increasing population incomes, creating new jobs, and developing entrepreneurship.

**Kirish.** Har bir mamlakat rivojlanish jarayonida kambag'allikni qisqartirish bosqichidan o'tadi. O'zbekiston ham 2020-yilda aholining muayyan qismi kambag'al ekanini tan olib, ularga madad berishga kirishdi.

Moliyaviy-tashkiliy choralar ko'rilib, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tizim joriy qilindi. Bu o'z samarasini berib, uzoq yillar og'ir vaziyatda bo'lgan 3 milliondan ziyod odamlarning sharoiti yaxshilandi. Kambag'allik darajasi 17 foizdan 11 foizga tushdi, kambag'allikni aniqlash mezonlari va manzilli ro'yxati shakllantirilib, "Ijtimoiy himoya yagona reestri" dagi hamda kambag'allikka tushish xavfi yuqori bo'lganlar kiritilishi davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berildi. Bunday oilalar "mahalla yettligi" va faollari tomonidan ovoz berish yo'li bilan tasdiqlanadi. Kambag'allikdan chiqarishga qaratilgan barcha ijtimoiy xizmat va yordamlar "Inson" markazlari tomonidan amalga oshirilishi bu muammoning keskin yechimlaridan biri bo'ladi deb uylaymiz.

**Adabiyotlar sharhi.** Kambag'allik muammosi va uni qisqartirish masalalari iqtisodiy va ijtimoiy fanlarda keng o'rganilgan bo'lib, turli olimlar ushbu tushunchaga turlicha yondashuvlarni ilgari surganlar. Xususan, Baxtishod Xamidov kambag'allikni insonning birlamchi ehtiyojlarini qondirish imkoniyatining yetishmasligi sifatida talqin qiladi hamda uni oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim va sog'liqni saqlash bilan bog'liq resurslar yetishmovchiligi orqali izohlaydi [8, 2-b]. Ushbu yondashuv kambag'allikni faqat daromad emas, balki keng ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rish zarurligini asoslaydi.

Shuningdek, Jahon banki va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar kambag'allikni kuniga 1,90 AQSh dollaridan kam daromad bilan yashash holati sifatida belgilaydi. Bu esa kambag'allikning global miqyosdagi minimal chegarasini aniqlashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag'allik darajasini solishtirma tahlil qilish imkonini beradi.

M.Muhammedov esa kambag'allikni ijtimoiy-psixologik nuqta nazardan tahlil qilib, uni ikki toifaga ajratadi: birinchisi — faol harakat qilmaydigan, mehnatga layoqatsiz yoki sust aholi, ikkinchisi esa ob'ektiv sabablarga tufayli kambag'allikka tushib qolgan, lekin ishlash istagi mavjud bo'lgan aholi qatlamidir [7, 2-b]. Ushbu tasnif kambag'allikni faqat iqtisodiy emas, balki inson omili bilan bog'liq kompleks hodisa ekanligini ko'rsatadi.

N.Ernazarova esa oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish kambag'allikni qisqartirishning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali aholi bandligini oshirish va daromad manbalarini kengaytirish mumkin [12, 254-b]. Bu yondashuv kambag'allikni kamaytirishda mikro-iqtisodiy mexanizmlarning muhimligini asoslaydi.

Shuningdek, M.Kalonov kambag'allikni qisqartirishda amaliy choralar va davlat dasturlarining natijadorligi muhimligini qayd etadi. U kambag'allikni kamaytirish faqat iqtisodiy o'sish emas, balki manzilli ijtimoiy siyosat orqali amalga oshirilishi zarurligini ta'kidlaydi [11, 1-b].

Xorijiy adabiyotlarda, jumladan David Ricardo asarlarida mehnat taqsimoti va iqtisodiy o'sish kambag'allikni kamaytirishning asosiy omili sifatida ko'rib chiqiladi [6, 135-b]. Uning klassik iqtisodiy qarashlari zamonaviy kambag'allik nazariyalarining shakllanishiga asos bo'lgan.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar kambag'allikni qisqartirish masalasi ko'p omilli va kompleks yondashuvni talab qilishini ko'rsatadi. Bu jarayonda iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional va inson omillarining uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqolada kambag'allikni qisqartirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, kambag'allikni qisqartirish masalalarini o'rganishda belgilash, tahlil qilish, sintez, tizimli tahlil, kuzatuv-anketalash usullaridan foydalanilgan. Ushbu metodlar orqali kambag'allikning mohiyati, uning kelib chiqish sabablari hamda ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari kompleks ravishda o'rganildi.

Xususan, belgilash usuli yordamida kambag'allik darajasini aniqlovchi mezon va ko'rsatkichlar tizimi shakllantirildi, tahlil va sintez usullari orqali esa mavjud ma'lumotlar asosida muammo tarkibiy qismlarga ajratilib, ularning o'zaro bog'liqligi umumlashtirildi. Tizimli tahlil kambag'allikka ta'sir etuvchi omillarni — daromad darajasi, bandlik holati, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kabi ko'rsatkichlarni o'zaro uyg'unlikda ko'rib chiqish imkonini berdi.

Kuzatuv va anketalash usullari asosida aholi qatlamlari kesimida empirik ma'lumotlar yig'ilib, ularning turmush darajasi, daromad manbalarini va ijtimoiy himoya mexanizmlaridan foydalanish holati baholandi. Olingan natijalar asosida kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan mavjud siyosat va dasturlar samaradorligi tahlil qilinib, ularni

takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida hududlar kesimida kambag'allik darajasidagi tafovutlar aniqlanib, ularni kamaytirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Natijada, maqolada ilgari surilgan yondashuvlar kambag'allikni qisqartirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Natijalar.** Kambag'allik chegarasini belgilashda birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan inson ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan asosiy tovar va xizmatlarni xarid qilish uchun yetarli bo'lgan daromadlar miqdorini asos qilib oladi. Bunday tovarlarga oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar-joy haqini to'lash, suv bilan ta'minlash, elektr energiyasi, maktab ta'limi, tibbiy xizmat kabilarni kiritishni tavsiya qiladi. Shunga asosan kambag'allik darajasini global miqyosda va har bir mamlakatlar doirasida aniqlanadi.

Chunki har bir davlat o'zining sharoiti va imkoniyatlaridan kelib chiqib, kambag'allikdan chiqish masalasini o'zlariga belgilab oladi. Bundan tashqari kambag'allik darajasi global doirada ham aniqlanadi. Buni asosan hozirgi sharoitda Jahon Banki amalga oshirib kelmoqda.

Bulardan kelib chiqib, xulosa qilinadigan bo'lsa kambag'allik darajasi, umuman olganda, nisbiy tushuncha bo'lib, u muayyan mamlakatdagi umumiy farovonlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Kambag'allik darajasi, olimlar va mutaxassislarining e'tirof etishicha, ikkitamutlaq va nisbiy kabi turlarga bo'linadi.

Bunda turli mezonlardan foydalaniladi, boy mamlakatlarda qashshoqlik chegarasi, kambag'al mamlakatlarga qaraganda yuqoriroq. Mutlaq kambag'allikda kun kechiruvchi odamlar biologik tirik qolishni ta'minlaydigan minimal ehtiyojlarnigina qondirishlari mumkin. Nisbiy kambag'allik bir davlatdagi darajaga nisbatan ikkinchi davlatda farq qilishi

yoki vaqtlar o'tishi bilan kambag'allikning darajasi ham o'sib borishi (kamayib ketishi) tushuniladi.

Kambag'allik darajasini o'lchash bo'yicha bir qancha yondashuvlar mavjud. Bulardan biri Baxtishod Xamidov keltirgan yondoshuvdir. Bu kishning fikriga ko'ra kambag'allik chegarasining eng ko'p ishlatiladigan ta'riflari quyidagilardir:

- oziqlanishga asoslangan kambag'allik darajasi;
- xalqaro kambag'allik chegarasi;
- nisbiy kambag'allik chegarasi;
- sub'ektiv kambag'allik chegarasi.

Professor Murod Muxammedov "Kambag'al aholi deganda ikki toifani nazarda tutish mumkin, birinchi toifa kambag'al aholi – bu o'z hayotini tuzatishni istamaydigan, istasada, bunga harakat qilishga dangasalik qiladiganlar. Ikkinchi toifasi esa ma'lum sabablar tufayli shunday holga kelib qolgan, ishlashni istaydigan, ammo ba'zi sabablar bilan bunga imkon topolmagan insonlardir",- deb ta'kidlaydi.

Bizning fikrimizcha kambag'allik toifasiga kiradigan aholini to'rt guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi malakasiz ishsizlar, ma'lumoti yetarli bo'lmagan "qora mehnat" dan boshqalariga yaramaydigan aholi. Ikkinchi toifa aholiga tegishli malakasi bor, ammo o'zlariga munosib ish topa olmayotgan aholi. Uchinchi toifaga, ish bilan band, ammo olgan oylik maoshi oilasini kambag'allik chegarasidan chiqib ketishiga yetarli bo'lmaydigan shaxslar. To'rtinchisi, ishlash imkoniyati yo'q (nogironligi bor, mehnatga qobiliyatsiz, bokuvchisi yo'q bolalar va qariyalar) aholi qatlami.

Kambag'allik toifasiga kiradigan aholini to'rt guruhga bo'lishning kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirish orqali mazkur masalalarni hal qilish muhimdir, 1-jadval.

1-jadval

**Kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturining mazmuni va uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi<sup>1</sup>**

№	Chora-tadbirlar dasturi	Kambag'allikni qisqartirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari
1.	Kambag'allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyatini joriy qilish.	Bunda mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha aniq tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda kambag'allik darajasini ko'p o'lchovli mezonlar orqali aniqlash mezonlari va baholash uslubiyatini joriy qilish.
2.	Aholi ta'minotining minimal standartlari va me'yoriy asoslarini ishlab chiqish.	Aholining ijtimoiy-iqtisodiy ta'minoti, iste'mol savatchasining minimal standartlari va me'yoriy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotda keng foydalanishni yo'lga qo'yish.
3.	Aholining yashash sharoitlari va ijtimoiy ahvoli o'rganilib, yashash minimumi hamda minimal iste'mol savatini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish.	Har bir mahalla kesimida mahalla va oilani qullab-quvvatlash vazirligi tomonidan hamda aholi daromadlari tabaqalashuvini o'rganish buyicha tizimli ishlarni olib borish hamda ularning davlat maqsadli dasturlari bilan o'zaro muvofiqligini ta'minlash orqali kambag'allikni qisqartirish bo'yicha aniq choralarini ko'rish.
4.	Mahalla bo'yicha aholi ijtimoiy axvoli tang bo'lgan qatlamlarining ro'yxatini shakllantirish va eng muhimi ularning har birida qanday imkoniyatlar mavjudligini o'rganilishi.	Kambag'allikni qisqartirishga yuzaki qaramaslik va rasmiyatchilik uchun fakat raqamlar orqali hisobot berish bilan cheklanmasdan, balki real holat asosida baholash lozim. Shuni inobatga olish joizki, mazkur masalada kambag'allikning qisqartirishga yuzaki qaramaslik va rasmiyatchilik uchun faqat raqamlar bilan emas, balki real holat asosida baholash lozim bo'ladi.
5.	Aholini real imkoniyatlarini yaratgan holda mas'uliyatini o'ziga oshirish orqali, uning daromadini topish tizimini ishlab chiqish.	Faqat biror narsa bilan ta'minlab, bu kambag'allikdan chiqdi, deb emas, balki real imkoniyatlarini yaratgan holda mas'uliyatini o'ziga ham yuklab, uning daromadini topishni tizimli holga keltirish. Ayrim hollarda mayda narsadek tuyulgan kasbni egallash jarayoni katta muvaffaqiyatlarga olib kelishi mumkin.
6.	Ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish va imkon qadar yangi ish o'rinlarini ochish mexanizmlarini ishlab chiqish	Mamlakatimizda mehnat bozori va uning tarkibini sifat jihatdan rivojlantirish, ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish va imkon qadar yangi ish o'rinlarini ochish, takomillashtirish hamda mehnat resurslarini taqsimlash, aholining o'zini o'zi band qilish prinsipini joriy qilish evaziga bandlik muammosini hal qilishga erishish.
7.	Aholini iste'mol savatchasi va tirikchilik uchun zarur bo'lgan eng kam miqdorlardagi daromadlar darajasini hududlar kesimida ishlab chiqish.	Mamlakatimiz miqyosida va uning barcha hududlarida, ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, iste'mol savatchasi va tirikchilik uchun zarur bo'lgan eng kam miqdorlardagi daromadlar darajasini ishlab chiqish va joriy qilinishini tezlashtirish ham maqsadga muvofiq.
8.	Har bir mahallada o'ziga xos kambag'allik darajasi va sonini aniqlash.	Kambag'allik darajasini va sonining mahallalar bo'yicha aniq bilib olib, uni bartaraf qilish ishlariga ham aniq manzilli tadbirlar bilan kirishish lozim.
9.	Mahalla va oilani qullab-quvvatlash vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan chora tadbirlarning ijrosini ta'minlashning tizimli nazorati o'rnatilishi lozim.	"O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha "Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi" va "Sanoatni rivojlantirish strategiyasi", "Kambag'allikni qisqartirish dasturi" keng jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Ularning har bir bandini nazorat qilib bajarilishini ta'minlab borish lozim.
10.	Aholining kambag'al va ishsiz qatlamlari, ayniqsa ayollar va yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularni kasbga o'qitishni tashkil qilish maqsadga muvofiq.	Mahallalar tomonidan ro'yxatga olingan aholining kambag'al va ishsiz qatlamlari, ayniqsa ayollar va yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasbiy ta'lim bo'yicha mahalliy ehtiyojdan kelib chiqib, byudjet hisobidan o'quv kurslarini ochish va ularni kasbga tayyorlash ishlarini hududlardagi «Monomarkaz»larda ham o'qitish maqsadga muvofiq.
11.	Har bir hudud bo'yicha kambag'allik darajasini aniqlash, ularni baholash bo'yicha tegishli indikatorlar ishlab chiqish.	Tegishli ma'lumotlar asosida har bir hudud bo'yicha kambag'allik darajasini aniqlash, ularni baholash bo'yicha tegishli indikatorlar ishlab chiqish, ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib, har bir hududda qanchadambag'al oilalarning mavjudligi mahallalar kesimida aniq belgilash va ularni kamaytirish bo'yicha mahalliy xokimiyat tomonidan aniq choralarini qo'llash.

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini mukammal bajarish uchun bir qancha chora-tadbirlar va yangi yo'nalishdagi innovatsion tavsiyalar ham ishlab chiqildi. Ushbu chora tadbirlar va yangi yo'nalishdagi innovatsion tavsiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi o'zaro bog'liq bo'lgan 3 bosqichli aniqlanib, ularning ketma-ketligi ishlab chiqildi. Har bir ishni bajarishda ijrochi aniq bo'lsagina, ma'lum natijaga erishiladi. Har bir faoliyat va tadbirni bajarish va amalga oshirish uchun mablag' kerak bo'ladi.

**Muhokama.** Kambag'allikni qisqartirish masalasi bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy boshqaruv tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kambag'allikni kamaytirishda faqat moddiy yordam choralari tayanish yetarli emas, balki aholi real imkoniyatlarini kengaytirish, ularni mehnat bozoriga integratsiya qilish va barqaror daromad manbalarini shakllantirish asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillar kambag'allikni qisqartirish jarayonida institutsional yondashuv, xususan "mahalla yetiligi" va "Inson" markazlari faoliyatining muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Biroq amaliyotda ushbu tizimlarning samaradorligi hududlar kesimida bir xil emasligi kuzatiladi. Bu esa ma'lumotlar bazasini yanada takomillashtirish, monitoring va baholash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini bildiradi.

Shuningdek, kambag'allikni qisqartirishda inson kapitaliga investitsiya qilish — ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash tizimlarini rivojlantirish — asosiy strategik yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, malakali kadrlar yetishmasligi va mehnat bozori talablariga mos kelmaslik kambag'allikni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biridir.

Muhokama jarayonida aniqlangan yana bir muhim jihat shundan iboratki, kambag'allikni qisqartirishda hududiy yondashuv va manzilli siyosatni kuchaytirish zarur. Har bir mahalla kesimida aholi daromadlari,

bandlik darajasi va ijtimoiy holatini aniq tahlil qilish orqali resurslarni samarali taqsimlash imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, innovatsion iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlarini yaratish, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kambag'allik darajasini pasaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonda raqamli iqtisodiyot va xizmatlar sektorining kengayishi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Kambag'allikni qisqartirish tizimi kompleks yondashuvni talab qiladi. Ya'ni, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy himoya, inson kapitali rivoji va institutsional samaradorlik o'zaro uyg'unlashgan holda amalga oshirilganiga barqaror natijaga erishish mumkin.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tegishli axborotlarni shakllantirish va natijasini baholab, munosib boshqaruv qarorlarini qabul qilish lozim. Buning uchun barcha yo'nalishlarda malakali mutaxassislarining bo'lishi taqozo qilinadi. Malakali mutaxassislar munosib rag'batlantirilsa, bulardan yangi g'oyalar chiqadi. Bu investitsiyani yaratadi va oqibatda innovatsion mahsulot paydo bo'ladi.

Aynan shunday yondashuvlar bilan innovatsion omillar imkoniyatlariga yo'l ochiladi. Jumladan, faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarga yangi g'oyalar uchun rag'batlantirish (YaGR) aniq bo'lsa, u albatta yangi g'oyalarni uylab topadi. Buni amalga oshirish va innovatsiya (texnika, texnologiya va boshqa ilg'or ashyolar) yaratish uchun investitsiya kerak bo'ladi. Bu esa o'z navbatida innovatsion mahsulotni yaratish imkoniyatini paydo qiladi. Bu esa o'z navbatida ma'lum darajada kambag'allikni qisqartirish imkoniyatini ham yaratadi. Chunki ushbu yo'l bilan yangi ish o'rinlari yaratiladi va bu ishsizlikni ham kamayishiga olib keladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Маҳаллада тadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni kiskartirish b'yiicha davlat siyosatining ustuvor iynalishlari t'grisida" ПФ-29-сон фармони. 03.12.2021 йил. <https://lex.uz>.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартда имзоланган "Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни кискарттиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги пф-5975-сонли фармони

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти 2022 йил 27 январда "Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори.

5. Абдурахмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.П. "Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси". Ўқув қўлланма -Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004 й.

6. Ricardo, David (1817) On the Principles of Political Economy and Taxation. Piero Sraffa (Ed.) Works and Correspondence of David Ricardo, Volume I, Cambridge University Press, 1951, p. 135.

7. Мухаммедов М. (2020) 1,9 АҚШ долларидан кам маблагга кун кечираётганлар // "Zarafshon" газетаси. 2020 йил 23 июнь. 68 сон. 2-бет.

8. Ҳамидов Б. (2020) Ўзбекистонда камбағаллик даражаси. Камбағалликни камайтириш учун нима қилиш керак? (Hamidov B. (2020) "Poverty rate in Uzbekistan. What should be done to reduce poverty?") review.uz/oz/au1 09.06.2020 15:13 780.

9. Mirzaev, K. (2011). Approaches and issues for developing livestock services in Uzbekistan. Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB, 8(2), 23-25.

10. Mirzaev, K., & Janzakov, B. (2020). The determinants of international tourism (in the example of CIS countries). European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(2), 2020.

11. Калонов М. "Камбағалликни кискарттириш: имконият ва ҳаракатлар қандай натижа беради?" «Халқ сўзи» газетасининг 2021 йил 11 февраль 30-сонни.

12. Эрнazarова Н.Н. Оилавий тadbirkorlik фаолиятини ривожлантириш орқали камбағалликни кискарттириш // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021 yil. 253-258 бетлар.